O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 16-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

258265 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar Uchtepa tumani, “Yusuf Sakkokiy” MFY, Yusuf Sakkokiy ko‘chasi, 116-uy manzilida “Yer osti avtoturargohi, savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish, maktab, maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda oilaviy poliklinika majmuasi bo‘lgan ko‘p xonadonli turar joy binolari”ga ixtisoslashtirib qayta qurish rekonstruktsiya qilish.	
Buyurtmachi:	“ECO GREENLAND” MChJ.
Bosh loyihachi:	"PERFECT CONSULT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	085389

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 28.06.2024-yildagi 130825062-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 18.07.2024-yildagi 1726-1726262-193340-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 31.07.2025-yildagi 202750523-sonli xulosasi.

1.4. Buyurtmachi va bosh loyihachi bilan kelishilgan 2025-yildagi loyihalash topshirig’i.

1.5. “Toshkent shahar suv ta`minoti” AJning 02.08.2024-yildagi 270/4-3427-sonli texnik shartlari.

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 19.09.2024-yildagi 05-2028-sonli texnik shartlari.

1.7.“Hududgazta`minot” AJning 22.08.2024yil №41-02-11-817/6174 -sonli xabari.

1.8. “Geolineproekt” MChJ tomonidan tayyorlangan hududning muhandislik-geologik sharoitlarining 2024-yildagi hisoboti.

1.9. Davlat ekologik ekspertizasi markazining 03.10.2024-yildagi 01-02/14-2231-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.10. Bosh loyihachi bilan buyurtmachi o`rtasida loyiha ishlarini amalga oshirish uchun. 10.03.2025-yilda tuzilgan 14-sonli shartnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibi bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja loyiha chizmalari;
- arxitekturaviy loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- konstruktiv loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- yong‘in xavfsizligi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- shamollatish va isitish tizimlari bo‘yicha chizmalar;
- obyektning issiqliktexnikasi hisob-kitobi va energiya samarodorlik pasporti;
- buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan qurilish materiallari narxlari.
- qurilishni tashkil qilish loyihasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun pandus tutqichlari bilan ta’minlangan bo’lib, pol qismiga sirpanmaydigan plitkalardan foydalanilgan hamda, yo`laklarning balad-past qismida panduslar, “Taktil” qoplamalar va qulay tutqichlardan foydalanish nazarda tutilgan. X ojatxonalarda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratilishi nazarda tutilgan.

3.1. Qurilish maydonining oziga xos xususiyatlari

- Qurilish maydonining zilzilabardoshligi -9 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni -50kg/m^2.
- Me’yoriy shamol bosimi -38kg/m^2.
- Cho’kuvchanlik bo’yicha tuproq turi - II.
- Mavsumiy tuproqni muzlash chuqurligi - 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

- Obyekt jamoat va turar-joy binolari zonasiga mansub va muhandislik tarmoqlari bilan ta’minlangan.

- Loyihalashtirilayotgan obyekt turar-joy va jamoat mavzesida joylashgan, hamda quyidagicha binolar bilan chegaralangan: - Shimol tomondan - Yusuf Sakkokiy ko‘chasi, yakka tartibdagi turar-joylar va savdo do‘kon binolari bilan chegaralangan. - Janub tomondan Savdo majmua binolari bilan chegaralangan; - Sharq tomondan - Yakka tartibdagi turar-joy binolari bilan chegaralangan; - G‘arb tomondan - Toshkent halqa avtomobil yo‘li ko‘chasi bilan chegaralangan.

Hududnining texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Hududning umumiy maydoni. - 9100,0 m^2.
Qurilish maydoni. - 5682,38 m^2.
Yo’llar va maydonlar qoplamasi - 2554,92 m^2.
Ko`kalamzorlashtirish va sport maydoni - 862,7 m^2.

3.3. Arxitektura va konstruktiv yechimlari.

Maktab binosi. (Yangi qurilish, bir-biriga birlashtirib loyihalashtirilgan 4 ta blokdan iborat) - 4 qavatli, yerto'lali, reja bo’yicha murakkab shaklda, A. B, C va D bloklardan iborat.

A-Blok - 4 qavatli, yerto‘lali, to'rtburchak shaklida, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 17,8 x 37,2 metr, o‘qlari 1- 4/A-G. A blok G o‘qi tomonidan C blokka birlashtirib loyihalashtirilgan. 1 - 2 - 3 va 4 - qavatlar balandligi - 3,64 metr. (poldan – plita ostigacha) Yerto‘la qavati balandligi -

3,94 m. (poldan - plita ostigacha) Qavatlarga ko`tarilish 1 ta ichki zina orqali amalga oshiriladi. Binoning 1 - qavatiga: vestibyul, sinf xonalari, laboratoriya xonalari, majlislar zali, robototexnika xonasi, o‘qituvchilar xonasi, inventor va xojatxona joylashtirilgan. 2 - 3 - va 4 - qavatlariga: sinf xonalari, o‘qituvchilar xonasi, inventar xonasi va xojatxona joylashtirilgan. Yerto‘la qavatda: server xonasi, oshxona, idish yuvish xonasi, xujralar, xojatxona va texnik xonalar joylashtirilgan. Binoning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, moyli bo‘yog‘, plastika, relin, gipsokarton, ekopanel, keramogranit va keramik plitkalar ishlatiladi. Yangi o‘quv binosining tashqi bezagida: bazalt plitalari ustidan fasad bo‘yog‘i, HPL panellari, keramogranit va boshqa materiallar ishlatiladi.

Binoning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish osti maydoni - 684,32 m^2.

Binoning umumiy maydoni - 3310,8 m^2.

Binoning qurilish hajmi - 13645.34 m3. (yerto‘la qavati bilan)

B-Blok - 4 qavatli, yerto‘lali, to'rtburchak shaklida, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 22,4 x 34,4 metr, o‘qlari 1- 5/A-G. A blok G o‘qi tomonidan D blokka birlashtirib loyihalashtirilgan. 1 - 2 - 3 - va 4 - qavatlar balandligi - 3,9 metr. (poldan - polgacha) Yerto‘la qavati balandligi - 4,2 m. (poldan - 1 - qavat poligacha) Qavatlarga ko`tarilish 2 ta ichki zina orqali amalga oshiriladi. Binoning 1 qavatiga: vestibyul, sinf xonalari, o‘qituvchilar xonasi, inventar va xojatxona joylashtirilgan. 2 - 3 - va 4-qavatlariga: sinf xonalari, o‘qituvchilar xonasi, inventar xonasi va xojatxona joylashtirilgan. Yerto‘la qavatda: kabinet, xujralar, xojatxona, kiyim alishtirish xonasi, kabinet va texnik xonalar joylashtirilgan. Binoning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, moyli bo‘yog‘, plastika, relin, gipsokarton, ekopanel, keramogranit va keramik plitkalar, PVH qoplama ishlatiladi. Yangi o‘quv binosining tashqi bezagida: bazalt plitalari ustidan fasad bo‘yog‘i, HPL panellari, keramogranit va boshqa materiallar ishlatiladi.

Binoning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish osti maydoni - 679,36 m^2.

Binoning umumiy maydoni - 3035,0 m^2.

Binoning qurilish hajmi - 13179,58 m^3. (yerto‘la qavati bilan)

C-Blok - (Maktab binosiga kirish bloki) - 4 qavatli, yerto‘lali, to'rtburchak shaklida, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 40,6 x 31,0 metr, o‘qlari 1 - 8/A - F. C blok A va B bloklarga birlashtirib loyihalashtirilgan. 1 - 2 - 3 - va 4-qavatlar balandligi - 3,9 metr. (poldan - polgacha) Binoning C – Ye; 1-5 o‘qlari orasida 2 - qavat balandligida atrium loyihalashtirilgan. Atrium qavati balandligi 9,3 m va 4,82 m. Yerto‘da qavati balandligi - 4,2 m va 3,3 m. Qavatlarga ko`tarilish 2 ta ichki zina, 1 ta tashqi zina va 2 ta lift loyihalashtirilgan. Binoning 1 - qavatiga: vestibyul, atrium, qorovulxona, xonalar va xojatxona joylashtirilgan. 2 - 3 - va 4 - qavatlariga: foye, kutubxona, o‘quv xonasi, o‘qituvchilar xonasi joylashtirilgan. Yerto‘la qavatda: ovqatlanish zali, idish yuvish xonasi, joylashtirilgan. Binoning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, moyli bo‘yog‘, plastika, relin, gipsokarton, ekopanel, keramogranit va keramik plitkalar ishlatiladi. Yangi o‘quv binosining tashqi bezagida: bazalt plitalari ustidan fasad bo‘yog‘i, HPL panellari, keramogranit va boshqa materiallar ishlatiladi.

Binoning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish osti maydoni - 1287.4m^2.

Binoning umumiy maydoni - 5562.4 m^2.

Binoning qurilish hajmi - 23044.46 m^3. (yerto‘la qavati bilan)

D-Blok - (Sportzal) - 1 qavatli, yerto‘lali, to'rtburchak shaklida, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 24,0 x 13,6 metr, o‘qlari 1 - 5/A-V. D blok C va B blokka birlashtirib loyihalashtirilgan. 1 - qavat balandligi - 12,4 metr. (poldan – plita ostigacha) Yerto‘la qavati balandligi – 4.2 m. (poldan - 1 - qavat poligacha) yerto‘la qavatiga tushish uchun C va D bloklardan 2 ta ichki va

bitta tashqi zina orqali amalga oshiriladi. Binoning 1 - qavatiga: sportzal joylashtirilgan. Yerto‘la qavatda: basseyn xonasi joylashtirilgan. Binoning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, moyli bo‘yog‘, plastika, relin, gipsokarton, ekopanel, keramogranit va keramik plitkalar ishlatiladi. Yangi o‘quv binosining tashqi bezagida: bazalt plitalari ustidan fasad bo‘yog‘i, HPL panellari, keramogranit va boshqa materiallar ishlatiladi.

Binoning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish osti maydoni - 349.32 m^2.

Binoning umumiy maydoni - 652.8 m^2.

Binoning qurilish hajmi - 6182.96 m^3. (yerto‘la qavati bilan)

E-Blok - (Maktabgacha ta’lim muassasasi) - 3 qavatli, yerto‘lali, to'rtburchak shaklida, o'lchamlari o'qlari bo'yicha 39,2 x 53,0 metr, o‘qlari 1 - 7/A-P. Binoning 5 - 7 va K - P o‘qlari orasida binoga kirish qismida soyabonlar loyihalashtirilgan. 1 - 2 - va 3 - qavatlar balandligi - 3,6 m, va yerto‘la qavati balandligi - 3,9 m. (poldan - plita ostigacha) Qavatlarga ko`tarilish 3 ta ichki zina orqali amalga oshiriladi. Binoning 1 - qavatiga: xoll, gruppa xonalari, kiyim almashtirish xonalari, muzika zali, oshxona, balkon va boshqa xonalar joylashtirilgan. Yerto‘la qavatda: basseyn, kiyim almashtirish xonasi, shifokor xonasi, trener xonasi, kir yuvish xonasi, fizkultura va muzika zallari, massaj xonasi va xojatxona va texnik xonalar joylashtirilgan. Har bir qavatning 3 - 4 va B - I o‘qlari orasida xoll tashkil etilgan. Binoning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, moyli bo‘yog‘, plastika, relin, gipsokarton, ekopanel, keramogranit va keramik plitkalar ishlatiladi. Yangi o‘quv binosining tashqi bezagida: bazalt plitalari ustidan fasad bo‘yog‘i, HPL panellari, keramogranit va boshqa materiallar ishlatiladi.

Binoning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish osti maydoni - 2681,98 m2.

Binoning umumiy maydoni - 5120,64 m2. (yerto‘la qavati bilan)

Binoning qurilish hajmi - 29252,49 m3. (yerto‘la qavati bilan)

Binolarnng konstruktiv echimlari:

- Poydevorlar - quyma temir-beton. Poydevor beton sinfi B20, armatura sinfi A400.
- Yerto‘la devorlari qalinligi 400 mm bo‘lgan quyma temir-betondan.
- Ustunlar - quyma temir-beton 400x800mm beton kl.B25.
- Rigel - quyma temirbeton 400x400 (h), 400x500 (h), 400x600 (h) mm, 400x900 (h) beton kl.B25.
- Orayopma - qalinligi 180 mm bo‘lgan quyma temir-beton beton kl. B25.
- Devorlar - t=200mm bo‘lgan gazoblokli, gorizontal terish choklari SG1 to‘rlari bilan qadamma-qadam armaturalangan. G‘isht terish balandligi bo‘yicha 600 mm; vertikal po‘lat faxverk ustunlar bilan mustahkamlangan, devorlar o‘z-o‘zini ko‘tarib turuvchi, karkas va devor orasida 20-30mm kenglikdagi tirqishlar mavjud.
- To‘siqlar - qalinligi 150 mm bo‘lgan gazoblokli. Devor va qoplamaga egiluvchan bog‘lamalar bilan mahkamlanadi.
- Faxverk ustunlar - L50x5 burchaklardan yasalgan metall ustunlar va qoplamaga mahkamlangan.
- Binoning butun perimetri bo‘ylab kengligi 2,0 m bo‘lgan asfalt-beton to‘shama shag‘alli asosga t=100mm

3.4. Yo’nginga qarshi texnik yechimlar:

- Olovbardoshlik darajasi - II;
- Binoning javobgarlik darajasi - II;
- Konstruktiv yong‘in xavfi sinfi - C1;
- Funksional yong‘in xavfi sinfi - F1

Loyihada rejalashtirish va muhandislik yechimlari yong'inga chidamlilik, yong'in tarqalishini cheklash, evakuatsiya yo'llari, evakuatsiya va favqulodda chiqishlar, shuningdek, yong'in bo'linmalarining mavjudligi va yong'in xavfsizligi talablari ta'minlash ko’zda tutilgan.

Loyiha yong'in signalizatsiyasini va yong'indan ogohlantirish tizimi rejalashtirilgan.

Loyihada bino-ishootlarga o’t o’chirish mashinalarining qattiq qoplamali yo’llardan kirish joyi mo’ljallangan. Ishlab chiqarish korxonasining ichki yong'inga qarshi suv ta'minoti (B2) loyihalashtirilgan tashqi yong'inga qarshi suv ta'minoti tarmog'idan amalga oshiriladi.

3.5. Energiyasamaradorlik yechimlar.

Binoning energiya samaradorligini oshirish maqsadida mazkur obyekt bo’yicha o’rab turgan konstruksiyalarning issiqlik texnikasi hisob-kitobi ishlab chiqilgan. Bino devoriga yonmaydigan issiqlik tutuvchi izolyatsiya bilan himoya qoplanadi. Loyihada binolarni maishiy issiq suv bilan ta’minlash maqsadida muqobil issiqlik manbalari quyosh kollektorlari (vodonagrivatel) ornatish ko’zda tutilgan. Yoritish tizimi uchun zamonaviy energotejamkor yoritish LED chiroqlaridan foydalaniladi.

- Loyihaga ko’ra bino tom qismida 550 Vt lik 30 dona, jami quvvati 16,05 kVt quyosh panellari o’rnatilishi rejalashtirilgan.

3.6. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan binoning ekspertiza ko‘rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda – 71 867 587,310 ming so‘mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1.Loyihalanayotgan binoning kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, yong‘in signalizatsiyasi va yong‘in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari, isitish va shamollatish tizimlari loyihada ko‘zda tutilgan.

4.2. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti mazkur obyekt bo‘yicha tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo‘yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari bo‘yicha loyiha hujjatlari o`rnatilgan tartibda kelishilsin.

4.3. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkiloti mazkur obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlari bo‘yicha qurilish-montaj ishlari tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida amalga oshirilishini ta’minlasin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 31.07.2025-yildagi 202750523-sonli xulosasi. Hududiy yo’ng’inga qarshi nazorat xizmati hamda hududiy sanitariya-epidemologiya xizmatlari bilan kelishilgan.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining 03.10.2024-yildagi 01-02/14-2231-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Loyiha hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo’shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

5.4. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga amal qilinsin. Buyurtmachi loyihani tasdiqlashdan oldin loyiha hujjatlarini barcha tegishli tashkilotlar bilan belgilangan tartibda kelishib olishi shart, shu jumladan loyiha FVB yo’ng’in xavfsizli nazorat xizmati va “Hududgaz Toshkent” GTF bilan kelishilsin.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **71 867 587 310** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

518 956 530 so'mga kamaytirilib, **71 348 630 780** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **62 525 198 099** so'm

Asbob-uskunalar: **1 178 936 526** so'm

QQS: **7 644 496 155** so'm

6.1. Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari ekspertizaga texnologik, qurilish va boshqa bo’limlar bo’yicha buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Obyektning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng, haqiqiy bajarilgan ishlar (ijro hujjatlari) natijalari asosida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorida belgilangan tartibga ko’ra “Nazorat o’lchovi” natijalari bo’yicha aniqlanadi.

6.3. Buyurtmachi obyekt bo’yicha o’rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi 684-sonli Qonun talablariga rioya etilsin.

6.4. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan ishchi-quruvchilarning ish haqlari, qurilish mexanizmlari narxlari hamda pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo‘yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Bunda buyurtmachi va pudrat tashkilotini ShNQ 4.01.16-09ning tegishli bandlariga amal qilinishi talab etiladi.

6.5. Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritilib, taqdim qilingan lokal xulosaga javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgar hisoblanadi.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti ShNQ 2.07.01-03*, ShNQ 2.08.01-19, ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.07.02-22 hamda QMQ 21-02-99* ning tegishli bandlariga amal qilgan holda loyiha amalga oshirsin. Ekspertlar tomonidan berilgan oraliq xulosalarda ko‘rsatib o‘tilgan qo‘shimcha va kamchiliklar to‘liq bartaraf etilsin. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti obyekt bo'yicha chegara hududidan chiqilmasin va chegaradoshlardan rozilik xati olinsin.

6.7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266-sonli Qarorining tegishli bandlari hamda ShNQ 2.07.02-22 shaharsozlik norma va qoidalari talablari bajarilishi ta’minlansin.

6.8. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023-yildagi PF-199-son va 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli Farmonlari tegishli bandlari bajarilsin.

6.9. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bob, 29-bandiga muvofiq ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.10. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga, yong’in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlasin.

6.11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4779-sonli Qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to’liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2019-yildagi PQ-4545-sonli Qarorining tegishli bandlari bajarilsin.

6.13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 26-dekabrdagi “Elektr tarmog’i xo’jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 1050-sonli hamda 1998-yil 15-maydagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo’riqlash qoidalariga amal qilinsin.

6.14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorining 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.15. Loyiha hujjatlarida o‘zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining” xulosasi qayta olinib, loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, o’rnatilgan tartibda qayta ekspertiza olinsin.

6.16. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o’rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda, loyiha-smeta hujjatlarini o’zgartirish talabi qo’yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to’liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Buyurtmachi va loyiha tashkilotlari tomonidan Toshkent shahar Uchtepa tumani, “Yusuf Sakkokiy” MFY, Yusuf Sakkokiy ko‘chasi, 116-uymanzilida “Yer osti avtoturargohi, savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish, maktab, maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda oilaviy poliklinika majmuasi bo‘lgan ko‘p xonadonli turar joy binolari”ga ixtisoslashtirib qayta qurish rekonstruktsiya qilishn boyicha tayyorlanib taqdim qilingan loyiha hujjatlari ekspertiza natijalarini (6-band) hisobga olgan holda kelgusida ko’rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Azimov Dilshad Said-anvarovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abduqodirov Jasurxo‘ja Abdukobil O‘g‘li, Musayev Rustam Talatovich, Amanova Miyassar Aliyevna, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Sagatov Mirabid Xxx, Kurpelyanskaya Irina Borisovna, Nurmetov Timur Kurambayevich